

PEDAGOGIKADA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI

*Zamonova Farangiz Qo'ldosh qizi**TDTrU Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi**Matkarimova Jamila Durdiyevna**TDTrU f.f.d.(DSc), v.b.professor*

Annotatsiya: Ushbu ishda pedagogik jarayonda deviant xulq-atvorning yuzaga kelish sabablari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda oldini olish yo'llari yoritilgan. Mavzuga zamonaviy pedagogik va sotsiologik yondashuvlar asosida tahlil berilgan bo'lib, Entoni Giddensning sotsiologik nazariyalari orqali deviantlikning jamiyatdagi o'rni va ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, maktab, oila va ijtimoiy muhitning o'zaro hamkorligining ahamiyati asoslab berilgan. Ishning asosiy maqsadi – yoshlar orasida uchraydigan salbiy xulq-atvor turlarini erta aniqlash, tahlil qilish va tarbiyaviy ishlar orqali ularni ijobiy yo'nalishga burish usullarini ko'rsatishdir.

Аннотация: В данной работе освещены причины возникновения девиантного поведения в педагогическом процессе, факторы, влияющие на его формирование, а также пути его предотвращения. Тема проанализирована на основе современных педагогических и социологических подходов, а роль и влияние девиантности в обществе проанализированы через социологические теории Энтони Гидденса. Также обоснована важность взаимодействия школы, семьи и социальной среды. Основная цель работы - показать методы раннего выявления, анализа негативных типов поведения, встречающихся среди молодежи, и направления их в положительное русло посредством воспитательной работы.

Abstract: This work highlights the causes of deviant behavior in the pedagogical process, the factors influencing its formation, and ways to prevent it. The topic is analyzed based on modern pedagogical and sociological approaches, and the role and influence of deviance in society are analyzed through the sociological theories of Anthony Giddens. The importance of the interaction of school, family, and social environment is also substantiated. The main goal of the work is the early identification, analysis of negative types of behavior encountered among young people, and demonstration of ways to turn them in the positive direction through educational work.

Kalit so'zlar: Ijtimoiylashuv, axloqiy me'yorlar, deviant xatti-harakatlar, psixologik muammolari, oilaviy muhit, o'smirlar o'rtasidagi huquqbuzarlik, jinoiy faoliyat, "Jinoyat va jazo", madaniy va institutsional omillar.

Ключевые слова: Социализация, моральные нормы, девиантное поведение, психологические проблемы, семейная среда, правонарушения среди

подростков, преступная деятельность, "Преступление и наказание," культурные и институциональные факторы.

Keywords: Socialization, moral norms, deviant behavior, psychological problems, family environment, juvenile delinquency, criminal activity, "Crime and Punishment," cultural and institutional factors.

Bugungi davrda ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxs kamolotini shakllantirish, uning ijtimoiylashuvi hamda psixologik barqarorligini ta'minlash vazifasini ham bajaradi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning xulq-atvori, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi, axloqiy me'yorlarga amal qilishi muhim o'rin tutadi. Afsuski, so'nggi yillarda yoshlar orasida deviant xatti-harakatlar – ya'ni jamiyat tomonidan qabul qilingan qoidalarga zid bo'lgan xulq-atvor shakllari ko'payib bormoqda. Shunday holatlar maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta maktablar, kasb-hunar maktablari va hatto oliy ta'lim muassasalarida ham kuzatilib kelinmoqda. Pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri bu – shaxs tarbiyasi va rivojlanishiga ko'maklashish bo'lib, bu borada deviant xulq-atvorning sabablarini aniqlash, uni oldini olish hamda tuzatish choralari muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzuni o'rganish dolzarbligi aynan shu jihatlar bilan belgilanadi: bugungi kunda esa bolalar va o'smirlarning psixologik muammolari, oilaviy muhit, axborot vositalarining ta'siri, tengdoshlar bilan muloqot kabi omillar deviant xulq-atvorga sabab bo'lishi ham mumkin. Shu boisdan, pedagogikada bu muammoni chuqur o'rganish, unga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Har qanday jamiyatda doimiy e'tiborga muhtoj odamlar mavjud. Bular o'z navbatda jismoniy, ruhiy hamda ijtimoiy rivojlantirishida chetga chiqishi, og'ishi bor bo'lgan odamlar hisoblanadi. Ular doim guruh bo'lib ajralishga, jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan bo'ladi. Bunday insonlarga nisbatan deviatsiya yoki deviant xulq-atvor so'zlari ko'p ishlatiladi. Deviatsiya deb jamiyatda o'rnatilgan huquqiy, ijtimoiy, axloqiy qoida va me'yorlariga mos kelmaydigan xatti-harakat va xulq-atvorlarga aytiladi. Odatda deviant xulq-atvor o'spirinlik davrida yuzaga keladi. O'spirinlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkab davr hisoblanadi. Uni yana o'tish davri ham deb ataladi. Kattalar bu davrda bolalarga e'tiborli bo'lishlari, o'smirlarni tarbiyalash usullarini to'g'ri tanlash va ulardan foydalanishlari kerak bo'ladi. O'smir psixologiyasi haqida ma'lumotga ega emaslik, oilada tarbiyaning noto'g'ri usuldan foydalanish, bola va ota-onalar o'rtasida konfliktli holatlarni yuzaga kelishi natijada musobotlarga shikast yetadi. Oiladagi salbiy, beshafqat muhit ma'lum turdagi o'smirlardagi qo'pollik, yovvoyilik, sovuq munosabat kabi illatlarni paydo bo'lishiga zamin yaratadi hamda ularda atrofdagilarga nisbatan qarama qarshi ruhda harakatlanib, tajavuzkorona buzuvchilar sifatini namoyon qilishadi. Bola baxtli,

mustahkam va sog'lom oilada muloqot qilsa, u o'ziga va atrof muhitga ishongan, atrofdagi madaniyat me'yorlarini adolatli qabul qiladigan, odobli shaxs sifatida shakllanib boradi. Bola o'z kelajagiga ma'lum bir tarzda yo'naltiriladi. O'smirlar o'rtasidagi huquqbuzarlik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, deviant xulq-atvorga ega bo'lgan yoshlarning ko'piligi disfunktsional oilalarda tarbiyalangan.

Hozirgi kunda deviant xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud: Jinoyatchilik. Biror davlatda o'rtanilgan qonun va me'yorlarda nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabat jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi. Narkomanlik va ichkilikbozlik. Narkotik moddalardan foydalanish va ichkilikbozlik deviant xulq-atvorning keng tarqalgan turlaridan biridir. Bu xulq-atvor shaxsning o'zini yo'qotishiga va jismoniy hamda ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, narkomanlik va ichkilikbozlik jamiyatdagi tartibni buzish va ijtimoiy izolyatsiyani keltirib chiqaradi. Yoshlar orasidagi ijtimoiy yakkalanish. Ba'zi yoshlar o'zini jamiyatdan ajratib ko'rsatadi va jamoaviy faoliyatlardan, ijtimoiy aloqalardan chetlanadi. Bu turdagi deviant xulq-atvor ko'pincha psixologik muammolar, stress, depressiya yoki o'zini anglashdagi qiyinchiliklar natijasida yuzaga keladi. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga doimiy ro'ju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.

Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab E.Dyurkgeym o'rgangan bo'lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlariga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan hisoblanadi. Misr, Hindiston va Xitoyning qadimiy xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, diniy qonun-qoidalar safi axloqiy me'yor sohadagi dastlabki qarashlaridan biri edi. O'rta asrlarda kelib esa axloqiy me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazaridan baholangan. XVII- XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq o'rganishdi. Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R. Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif berib o'tadi: "Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari va mavjud imkoniyatlarning bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir" deggan fikrlarni ilgari surgan. Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqqan holatlarini o'rganuvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari O'zbekistonda istiqloq sharofati bilangina o'rganila boshladi. Deviant xulq-atvorning turli ko'rinishlarini mamlakatimiz olimlari o'z tadqiqot ob'yektlari doirasida keng o'rganganlar. Respublika faylasuflari X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilovlar "Shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'siri masalalari", sotsiolog M. Usmonaliyev "Jinoyatchilikning umumiy jihatlari hamda o'smirlar jinoyatchiligi masalalari", psixolog olimlar G'.B.Shoumarav, N.A.Sog'inov,

S.A.Axunjanova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonaliyev, B.M.Umarovlar “O‘z joniga qasd qilish va jinoyatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari”, pedagog olimlar O.Musurmonova, D.J.Sharipovalarning “Oilada barkamol shaxs tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari”ni olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar sirasiga kiritish mumkin. Bundan tashqari badiiy adabiyotlarda deviant xulq-atvor haqida atroflicha ma’lumot ham berilgan va ulardan ko‘p narsalarni o‘rganish ham mumkin. Dostoevskiyning “Jinoyat va jazo” romonidagi Raskolnikovda deviant xulq - atvor namunasi ko‘rishimiz mumkin, u moddiy manfaat uchun odam o‘ldirishga qaror qiladi. Tolstoyning “Anna Karenina” romanidagi bosh qahramon ham deviant xulq-atvorga misol bo‘la oladi. Makarenkoning “Pedagogik she’ri”da deyarli barcha bolalar uyi tarbiyalanuvchilari deviant xatti-harakatni ifodalaydi va yana Balzakning “Goksek” qahramonining deviant xatti-harakatlarining qiziqarli namunalaridan biridir.

Pedagogikada deviant xulq-atvor muammosi yoshlar tarbiyasida dolzarb bir masalalardan biri bo‘lib, u ijtimoiy muhit, shaxsiy omillar hamda tarbiyaviy ta’sirlarning o‘zaro murakkab aloqasi natijasida yuzaga keladi. Bunday holatni samarali boshqarish uchun oila, maktab va jamiyat o‘rtasida uzviy hamkorlik zarur bo‘ladi. Sotsiolog olim Entoni Giddens o‘zining "Sotsiologiya" nomli asarida deviantlikni ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqish sifatida talqin etadi hamda ushbu holat jamiyatdagi ijtimoiy tartibning barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab o‘tadi. Unga ko‘ra, deviant xulq-atvorni tushunish uchun faqat shaxsiy sabablar emas, balki makro-iqtisodiy, madaniy va institutsional omillarni ham chuqur tahlil qilish lozim bo‘ladi. Giddens fikricha, ta’lim tizimi faqatgina bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy nazorat va me’yorlarni shakllantiruvchi muhim institut sifatida faoliyat yuritishi kerak. Shu boisdan ham, deviant xatti-harakatlarning oldini olishda maktablar nafaqat ta’lim, balki ijtimoiylashuv maydoni sifatida ham faol bo‘lishi lozim. Shunday ekan, deviant xulq-atvor muammosiga kompleks, tizimli hamda ijtimoiy ongni shakllantiruvchi yondashuv asosida yondashish – zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri bola olad.

Adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva N. “Ijtimoiy pedagogika” Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent -2009
2. Xakimova M. “Deviant xulq-atvor psixologiyasi“ o‘quv qo‘llanma. Toshkent -2014
3. Xidirova, M., & Bahromov, A. (2024). O ‘QITUVCHINING KASBIY DEFORMATSIYASI. Modern Science and Research, 3(5), 825-828.
4. Sadridinov S.R. Deviant xulq-atvorli bolalar psixologiyasi bilan ishlash metodikasi. Toshkent: al-Buxoriy universitetida 2022-yil 28-fevral kuni o‘tkazilgan 7-sonli majlis yig‘ilishi qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.

5. K.Turg'unboyeva, M.Tolipov, I.Oxunov "Ijtimoiy pedagogika asoslari. Toshkent "Fan va texnologiya"-2008
6. Shagazatova, B. K., & Alisherovna, K. N. (2023). Changes in the Incretin Levels After Gastric Bypass. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 4(2), 446-450.
7. Ra'no, D. S., Khidirova, M. Q., Nosirova, D. S., & Jonzoqova, S. A. COLLABORATIVE LEARNING TECHNOLOGY BASED ON THE CONTENT OF THE FORMATION OF STRATEGIC COMPETENCE.
8. Жамолдинова, О., & Нарбаева, Т. (2012). Ёшлар маънавиятини юксалтиришда ижтимоий лойиҳаларнинг аҳамияти. Ёшлар маънавияти ва соғлом турмуш тарзи. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент: Зиё, 107-109.